



\_\_\_\_\_ hokimligi  
*maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
tarix fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ning  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun  
"YOSH TARIXCHI" NOMLI*

**TO'GARAK  
HUJJATLARI**

**To'garak a'zolari haqida ma'lumot**

<b>№</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili (to'liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona \_\_\_\_\_





**MMIBDO‘ \_\_\_\_\_**  
**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan “Yosh tarixshi” to‘garagining**  
**ISH REJASI**

<b>№</b>	<b>Yillik ish reja mavzulari</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
1.	Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar			
2.	Ilk o‘rta asrlarda Xorazm, Xioniylar va Kidariylar davlatlari			
3.	Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.			
4.	O‘rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida			
5.	G‘arbiy Turk xoqonligi.			
6.	Movarounnaxrda arab xalifaligining o‘rnatilishi			
7.	Xalifalikka qarshi xalq noroziligi			
8.	Abbosiyilar davrida Xuroson va Movarounnahr.			
9.	Qarluqlar, Og‘uzlar, Tohiritlar. Mustaqil davlatlarning tashkil topishi			
10.	Somoniylar.			
11.	G‘aznaviylar.			
12.	Qoraxoniylar davlati.			
13.	Xorazm davlati va uning yuksalishi.			
14.	Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari.			
15.	Muhammad Xorazmshohning mamlakat mudofasiga oid tadbirlari va uning oqibati.			
16.	Jaloliddinni Manguberini Xorazm taxtiga o‘tirishi.			
17.	Jaloliddin Manguberdi mohir sarkarda.			
18.	Chig‘atoy ulusining tashkil topishi.			
19.	Etnik jarayonlar va O‘zbek xalqining shakllanishi			
20.	Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayoti.			
21.	Diniy bilimlarning rivojlanishi.			
22.	Me‘morchilik, san‘at va musiqa.			
23.	XIV asrning o‘rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat			
24.	Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi.			
25.	Amir Temur saltanatining boshqaruvi va harbiy tizim			
26.	Mirzo Ulug‘bekning hukmronligi davrida Movarounnahr.			
27.	Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi			
28.	German qabilalari va Rim imperiyasi.			
29.	Franklar.Franklar davlatning tashkil topishi.			
30.	Franklar imperiyasi.			
31.	Britaniyadan Anliyaga.			
32.	Muqaddas Rim imperiyasi.			
33.	Vizantiya: G‘arb va Sharq orasida.			
34.	Slavyanlar va ularda davlatning tashkil topishi.			
35.	Sharqiy slavyanlar. Kiev Rusi davlati.			

36.	Yevropa xalqlarining madaniyati			
37.	Arabiston ilk oʻrta asrlar boshlarida.			
38.	Arab xalifaligi.			
39.	Hindiston.			
40.	Xitoy.			
41.	Osiyo mamlakatlari madanyati.			
42.	Yevropada oʻrta asr shaharlari.			
43.	Osiyo mamlakatlarning oʻrta asr shaharlari.			
44.	Oʻrta asrlarda xristianlik.			
45.	Salib yurishlari.			
46.	Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi			
47.	General shtatlar			
48.	Yuz yillik urushning boshlanishi va uning dastlabki davri			
49.	Fransiyada mutlaq monarxiya.			
50.	Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi			
51.	Angliya oʻrta asrlar soʻngida			
52.	Germaniya.			
53.	Rus knyazliklari.			
54.	Rusning bosqinchilariga qarshi kurashi.			
55.	Rus knyazliklarida markazlashish jarayonlari.			
56.	Yevropa madaniyati.			
57.	Gʻarbiy Yevropada meʼmorchilik, sanʼat va adaboyot.			
58.	Saljuqiylar davlatlari.			
59.	Usmonli turklar davlati			
60.	Moʻgʻullar davlati			
61.	Oltin Oʻrda xonligi.			
62.	Xitoy.			
63.	Yaponiya.			
64.	Koreya			
65.	Hindiston.			
66.	Oʻrta asrlarda Amerika.			
67.	Afrika xalqlari Oʻrta asrlarda			
68.	Osiyo, Amerika va Afrika xalqlari madanyati.			

Mavzu: Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar.

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta‘limiy maqsad:-o‘quvchilarga Qadimgi Turon. Yirik sug‘orish tarmoqlarining qazib chiqarilishi. Yerga egalik qilishning yangi shaklining qaror topishi va uning rivojlanishi. Qishloq jamoasining dehqon va unga qaram kadivar, koranda tabaqalarga ajralishi haqida ma‘lumot berish;

Tarbiyaviy maqsad: - o‘quvchilargavatanimiz va o‘zbek xalqining o‘rta asrlarda boshidan kechirgan g‘oyat murakkab va mashaqqatli hayoti haqida tushuncha berish va bundan saboq olishni o‘rgatish;

Rivojlantiruvchi maqsad: -o‘quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobiliyatini, shakllantirish.

Mashg‘ulot turi: yangi bilimlarni bayon qilish va egallash Mashg‘uloti.

Mashg‘ulotning metod: suhbat, tush untirish, savol-javob, aqliy hujum, fikrlar testi, klaster.

Mashg‘ulotning jihoz: Mashg‘ulotlik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmlar, ko‘rgazma, slayd, kompyuter.

I.Tashkiliy qism:

a) Salomlashish, b) davomatni aniqlash, c) sinf tozaligini kuzatish, d) o‘quvchilarni Mashg‘ulotga tayyorlash.

II.O‘tilgan mavzuni takrorlash:

O‘qituvchi o‘tilgan Mashg‘ulotni uyga vazifasini tekshiradi, savollar beriladi.

1.O‘rta asrlar tarixi qaysi davrlarga bo‘linadi?

2.Qaysi davrdan keyin ilk o‘rta asrlar boshlanadi?

3.Ilkl o‘rta asrlar tarixi qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?

4.O‘zbekiston tarixida ilk o‘rta asrlar qaysi asrdan boshlanadi?

5.IX-XV asrlar O‘rta Osiyo tarixida nima deb ataladi?

6.O‘rta asrlar tarixi qanday manbalar asosida o‘rganiladi?

7.Qadimgi shahar yodgorliklaridan qaysilarini bilasiz?

III.Yangi mavzu bayoni:

Reja:

1.Dehqonlar va ular xo‘jaligidagi hayot.

2.Qishloq jamoalarining tabaqalanishi.

Qadimgi Turon diyorida zamonasining buyuk davlatlaridan Qang‘ davlati va Kushon podsholigi ravnaq topgan davrda yuksalish boshlangan edi. Bu siljishlar oqibatida mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shaharlarning soni ko‘paydi va hududi kengaydi. Shaharlar o‘rta asrlardan boshlab hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi.

Vohalarda yirik sug‘orish tarmoqlari qazilib, sug‘orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chig‘ir va charxpalak kabi suv inshootlari kashf etildi. Oqar suv sathidan birmuncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarib obod etildi. Ziroatchilikda g‘allakorlik, sholikorlik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bog‘dorchilik maydonlari kengaydi. Ekin maydonlarini sug‘orish va ishlov berishning takomillashuvi tufayli aholi dehqonchilikdan mo‘l hosil oladigan bo‘ldi.

Shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivoj topishi bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bordi. Natijada mamlakatning iqtisodiy hayotida xomashyo yetkazuvchi qishloqlarning nufuzi o‘tarildi. Bir tomondan, yerga, ziroatkor maydonlarga bo‘lgan munosabat, ularga egalik qilish shakli asta-sekin o‘zgara boshladi. Ikkinchi tomondan esa, o‘troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o‘rtasidagi aloqalar rivojlandi. Mamlakatning dasht va tog‘oldi mintaqalarida yashovchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining o‘troq hayot tarziga o‘tishi kuchaydi. Oqibatda dehqonchilik uchun yaroqli obikor yerlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora oshib borishi natijasida qo‘riq va bo‘z yerlarga suv chiqarilib, katta-katta ekin maydonlari barpo etildi.

Sarkorlar o‘zlariga tegishli yer maydonlarini sug‘orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa, tog‘on boshi atrofidan ajratib oladilar. Bu yo‘l bilan ular suvdan dehqonchilikda bemaol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o‘z ta‘sirini o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa ular ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. O‘sha zamonda ular dehqonlar deb atalgan. Dehqonlar shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do‘konu rastalaridan iborat kattagina xo‘jalikka ham ega edilar. Qishloqlarda esa, ekinzor paykallardan tashqari, ularning ko‘shk



**Mulkdor dehqon oilasi.**



va istexkomli qo'rg'onlari, objuvozu moyjuvoz va tegirmonlari bo'lardi. Qul, cho'rilardan iborat ko'pdan ko'p xizmatkorlar dehqonlarning xo'jaligida qishin-yozin mehnat qilganlar. Bulardan tashqari, har 1 katta yer egasining 30-40, 50-100 va ba'zan undan ortiq maxsus askariy guruhi — chokarlari bo'lgan.

Chokarlar baquvvat va abjir hamda o'z xojasiga sadoqatli o'spirinlardan tanlab olingan. Bunday sodiq va jangovar chokarlari bilan dehqonlar yov hujumi paytlarida dushmanga qarshi harbiy yurishlarda qatnashadi. Osoyishtalik zamonida esa chokarlarga suyanib qishloqning ziroatkor ahli ustidan hukmlarini o'tkazardi.

Avvalda o'z qaramog'idagi xizmatkorlari mehnatidan foydalanib kelgan dehqonlar keyinchalik turli yo'llar bilan qishloq jamoalari ustidan hukmronlik qiladigan, bora-bora ular kuchidan foydalanadigan bo'ladilar. Shunday qilib, mamlakatda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi bilan qishloq jamoalari ichida yirik yer egalari bo'lmish dehqonlar bilan bir qatorda kadivarlar tabaqasi ham paydo bo'ladi. Mamlakatda yer-suv mulkchiligining xususiyligi ortib borishi bilan kadivarlarning soni asta-sekin ko'payib, dehqonchilik xo'jaligining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlaridan biriga aylangan.

V asrning o'rtalariga kelib, garchi ekin yerlarining ma'lum bir qismi mulkdor dehqonlar qo'l ostidagi mulklardan iborat bo'lsa ham, ammo ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi hali ham qishloq jamoalarining qaramog'ida edi.

Yer egaligining tarkib topishi oqibatida mamlakatning ijtimoiy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Patrlarxal qishloq jamoalari ijtimoiy jihatdan tabaqalanib, u yerli mulkdor dehqon va unga qaram bo'lgan yersiz va erksiz kadivarlarga ajralib bordi. Qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar tabaqasi kashovarlar deb atalardi. Ularning ma'lum bir qismi jamoa yerlaridan mahrum bo'lib, bora-bora kadivarlarga aylanib borganlar. Ayrim dehqonchilik vohalarining katta yerlarga ega bo'lgan dehqonlar esa o'z viloyatlarida hatto mustaqil hokim bo'lib oladilar.

IV. Mustahkamlash:

O'quvchilar atamalariga izoh beradilar.

Dehqon (qishloq hokimi) - ... Kashovar - ...

Kadivar - ... Chokar - ...

Objuvoz - ... Moyjuvoz - ...

1. Dehqonlarning shakllanish jarayonini ko'rsating.

2. Dehqonchilikdagi yutuqlarni ko'rsatib bering.

V. Baholash: Mash'ulotda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa: mavzu savollariga javob yozish.

1. Dehqonchilikda qanday yutuqlar qo'lga kiritilgan?

2. Qanday omillar qishloqlar nufuzining ko'tarilishiga sabab bo'lgan?

3. Nima sababdan qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishga ehtiyoj kuchaydi?

4. Dehqonlar va kadivarlar tabaqasi qay tariqa shakllandi?

5. Kashovarlar kim, ular haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mavzuning asosiy mazmunini so'zlab berish.

**Mavzu:** Ilk o‘rta asrlarda Xorazm, Xioniylar va Kidariylar davlatlari.

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy maqsad:**-o‘quvchilarga Xorazm davlati. Ko‘chmanchi chorvador, xioniy va kidariylarining kirib kelishi. Xioniylar. Kidariy. Davlat xududi, geografik joylashuvi, davlat boshqaruvi. Aholining mashg‘ulotlari haqida ma‘lumot berish;

**Tarbiyaviy maqsad:** - o‘quvchilargavatanimiz va o‘zbek xalqining o‘rta asrlarda boshidan kechirgan g‘oyat murakkab va mashaqqatli hayoti haqida tushuncha berish va bundan saboq olishni o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** -o‘quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobiliyatini, shakllantirish.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilimlarni bayon qilish va egallash Mashg‘uloti.

**Mashg‘ulotning metod:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, aqliy hujum, fikrlar testi, klaster

**Mashg‘ulotning jihoz:** Mashg‘ulotlik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmlı ko‘rgazma, slayd, kompyuter.

**I.Tashkiliy qism:**

- a) Salomlashish,
- b) davomatni aniqlash,
- c) sinf tozaligini kuzatish,
- d) o‘quvchilarni Mashg‘ulotga tayyorlash.

**II.O‘tilgan mavzuni takrorlash:**


O‘qituvchi o‘tilgan Mashg‘ulotni uyga vazifasini tekshiradi, savollar beriladi.

- 1.Ilk o‘rta asrlarda dehqon kim bo‘lgan?
2. Erkin ziroatchilar tabaqasi kim deb atalgan?
3. Chokarlar kim bo‘lgan?
- 6 Kadivarlar kimlar?
- 7.Qadimgi shahar yodgorliklaridan qaysilarini bilaiz?

**III.Yangi mavzu bayoni:**

Reja:

- 1.Xorazm davlatining tashkil topishi
- 2.Xioniylar davlati.
- 3.Kidariylar davlati.
- 4.Eftallar davlati



Zaiflashib borayotgan Qang‘ davlatidan birinchi bo‘lib Xorazm ajralib chiqadi. Uni mahalliy afrig‘iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshlaydi. III asr o‘rtalarida Xorazm davlatining poytaxti dastlab hozirgi Qoraqalpog‘istonning Ellikqal’a tumanida joylashgan qadimgi Tuproqqal’a shahar

xarobasining oʻrnida boʻlgan. Milodiy 305-yilda Xorazmshoh Afrigʻ oʻz qarorgohini Xorazmning qadimgi Kat shahriga koʻchiradi. Kat qayta tiklanib, Al-Fir qasri ichida shoh oʻziga yangi saroy qurdiradi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Xorazmning afrigʻiy shohlari oldi tarafiga shoh surati, orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarini mustahkam oʻrnatib oladilar. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, xorazmshohlar unvoni dastlab siyovushlar sulolasi tomonidan qabul qilingan. Beruniy bu haqda «Siyovush ibn Kayxusravning Xorazmga kelishidan... tarix oldilar. Shu vaqtdan Kayxusrav... turk podsholari (ustidan) hukmronligini yurgʻizgan edi» deb yozgan. Oʻsha zamonda Kayxusrav, Saksafar, Farasman, Xusrav kabi hukmdorlar «Xorazmshoh» unvoniga sazovor boʻlishgan.

IV asr oʻrtalarida Oʻrta Osiyoga Yetti- suv va Sharqiy Turkistondan koʻchmanchi xion nomli qabilalarning hujumi boshlanadi. Xioniylar 353-yilda oʻz hukmdori Grumbat boshchiligida Sugʻdga bostirib kiradilar. Soʻngra ular Eronda tashkil topgan va tobora kuchayib borayotgan Sosoniylar davlati bilan toʻqnashadilar. Dastlabki janglardayoq sosoniylar shohi Shopur II (309-379) xioniylardan yengiladi. Soʻngra ular oʻrtasida tuzilgan sulh ittifoq orqali mustahkamlanadi. Oʻrtadagi ittifoq goh buzilib, goh tiklanib turadi. Nihoyat, IV asrning 70-yillarida Oʻrta Osiyoda xioniylar hukmronligi oʻrnatildi. Sirdaryo boʻylaridan to Amudaryo havzasigacha choʻzilgan keng maydonda xioniylarning kuchli davlati qaror topadi. Bu davlat 120 yildan oshiqroq hukmdorlik qiladi.

«Eftal» degan nom ilk bor «xeptal» shaklida V asr arman manbalarida uchraydi. Bu nom aslida «Eftalon» deb yuritilgan shoh nomidan olingan. Uni Vaxshunvar deb ham ataganlar, u eftallar yurishiga boshchilik qilgan. Qisqa vaqt ichida Chagʻoniyon, Toxariston va Badaxshon boʻysundiriladi. Ular bir zarba bilan Sugʻdda ham oʻz hukmronligini oʻrnatadilar. Eftallar davlati nihoyatda kuchayadi.

#### **IV. Mustahkamlash:**

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun oʻquvchilarga jadval toʻldirish topshirigʻi beriladi.

Davlatlarning nomi	Hukmronlik yillari	Poytaxti	Hukmdorlari
Xorazm davlati	III-VIII asrlar	Tuproqqal`a, Kat	Afrigʻ
Xioniylar davlati	370-490-yillar	Yettisuv	Grumbat
Kidariylar davlati	420-456-yillar	Balx shahri	Kidariy
Eftallar davlati	450-550-yillar	Poykand shahri	Vaxshunvar

**V. Baholash:** Mashgʻulotda faol qatnashgan oʻquvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa:** mavzu savollariga javob yozish. Mavzuning asosiy mazmunini soʻzlab berish.

Maktab MMIBDOʻ \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil

**Mavzu:** Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy maqsad:**-o‘quvchilarga Eftallar davlatining tashkil topishi, xududi, geografik joylashuvi, davlat boshqaruvi, inqirozining sabablari. Aholining mashg‘ulotlari. Aholining ho‘jalik hayoti. Yer egaligi. Savdo va pul mumomalasi, til va madiny aloqlar haqida ma‘lumot berish;

**Tarbiyaviy maqsad:** - o‘quvchilargavatanimiz va o‘zbek xalqining o‘rta asrlarda boshidan kechirgan g‘oyat murakkab va mashaqqatli hayoti haqida tushuncha berish va bundan saboq olishni o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** -o‘quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobiliyatini, shakllantirish.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilimlarni bayon qilish va egallash Mashg‘uloti.

**Mashg‘ulotning metod:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, aqliy hujum, fikrlar testi, klaster

**Mashg‘ulotning jihoz:** Mashg‘ulotlik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmlı ko‘rgazma, slayd, kompyuter.

**I.Tashkiliy qism:**

- a) Salomlashish, b) davomatni aniqlash,
- c) sinf tozaligini kuzatish, d) o‘quvchilarni Mashg‘ulotga tayyorlash.

**II.O‘tilgan mavzuni takrorlash:**

Jadval asosida savol-javob o‘tkazish

Davlatlarni bir-biridan taqqoslang			
Xorazmshoxlar davlati	Xioniylar davlati	Kidariylar davlati	Eftallar davlati


**III.Yangi mavzu bayoni:**

Reja:

- 1.Xo‘jalik hayoti.
- 2.Yer egaligi.
- 3.Savdo va pul muomilasi
- 4.Hayotiy o‘zgarishlar.
- 5.Til va madaniy aloqalar.

Eftallar davlatiga birlashgan aholining etnik tarkibi xilma-xil bo‘lgan. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti esa biri ikkinchisidan keskin farq qilgan. Eftallar kelib chiqishiga ko‘ra ko‘chmanchi qabilalarga mansubligi tufayli chorvachilik bilan shug‘ullanib, yaylovlarda o‘tov qurib yashaganlar. Keyinchalik, eftallar zabt etgan yerlarda savdo-sotiq rivojlandi. Yillar o‘tishi bilan esa ular mahalliy aholi bilan qorishib ketadilar.

ILK O‘RTA ASRLARDA O‘RTA OSIYO



Toxariston va Sug‘d dehqonchilik hamda bog‘dorchilikning rivoj topgan markazi hisoblanardi. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g‘alladan tashqari sholi ham yetishtirilardi. Ziroatkor yerlarning kattagina qismi hali ham qishloq jamoalari tasarrufida bo‘lsada, ammo mamlakatdagi yer maydonlarining ma‘lum bir qismi dehqonlar qo‘lida va ibodatxonalar ixtiyorida bo‘lgan. Buning natijasida qishloq jamoasining kashovarzi - erkin qo‘shchilari ma‘lum darajada dehqonlarga tobe bo‘lib, ularga qaram kadivarlarga aylana borgan. Yaylovlarning asosiy qismi esa qabila va urug‘ jamoalari hamda ularning oqsoqollari - xvabulari tasarrufida edi. Hozirgi vaqtda ham Toshkent vohasi va Janubiy Qozog‘iston yerlarining bir qismini suv bilan ta‘minlab turgan Zog‘ariq (Zovariq) va Bo‘zsuv, Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbayi Darg‘om kanali V asrda barpo etilgan eng yirik sug‘orish tarmoqlaridan hisoblanadi.

Xuddi shu davrda Chag‘oniyon (Surxondaryo), Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naxshab (Qarshi) va Toshkent atroflari to‘la o‘zlashtirilib, alohida-alohida dehqonchilik vohalari shakllanadi. Keyinchalik, bu vohalarda yer egasi bo‘lgan dehqonlarning siyosiy mavqeyi oshib, ular yetakchilik qilgan kichik hududga ega voha hokimliklari vujudga keladi.

O‘rta Osiyo aholisi turli tillarda so‘zlashgan. Chorvador aholi o‘rtasida turkiy til muhiti hukmron edi. V-VI asrlarda sug‘d, xorazm va eftal yozuvlari tarqalgan edi. Eftallar xati Baqtriya yozuvi asosida paydo bo‘ladi. Eftallar yozuvi 25 harfdan iborat bo‘lgan. Xat chapdan o‘ngga tomon ko‘ndalangiga yozilgan. Eftallar xati Baqtriya yozuvi asosida paydo bo‘ladi. Bu davrda Xitoy, Hindiston va Eron bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayib boradi. V asrda o‘rta osiyolik shishasozlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o‘rgatadilar. O‘rta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan. Xitoy imperatorlari o‘z saroylarini bezashda O‘rta Osiyodan keltirilgan rangli shishadan foydalanganlar. Shunday qilib, O‘rta Osiyo aholisining madaniy an‘analari qo‘shni mamlakatlar, xususan, Hindiston va Eron tasviriy uslublari bilan omixtalashib, ilk O‘rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylanadi.

#### IV. Mustahkamlash:

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga jadval to‘ldirish topshirig‘i beriladi.

Eftallar davlati					
Kelib chiqishi	Siyosiy tarixi	Xo‘jalik hayoti	Yer egaligi	Madaniy hayoti	Diniy qarashlari

**V. Baholash:** Mashg‘ulotda faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa:** mavzu savollariga javob yozish. Mavzuning asosiy mazmunini so‘zlab berish.

Maktab MMIBDO‘ \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil



*v**eb-saytimiz: Zokirjon.com***

*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

**Tarix fanidan 7-sinf o'quvchilarga 68 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Narxi: 25 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**